

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.A.Abduraxmonov	
Adabiy asardagi nurning xususiyatlari va funksiyalari (O'zbek lirikasi namunda).....	460
A.B.Kosimova	
O'zbek adabiyotida hikoya va drabllar.....	469
	TILSHUNOSLIK
M.Y.Mamajonov	
Muloqotni boshqarishda lisoniy va nolisoniy vositalarning o'rni.....	473
R.M.Shukurov, G.S.Jo'raboyeva	
Farg'ona viloyati toponimlarining sotsiolingvistik xususiyatlari.....	477
Z.V.Alimova	
Navoiyning "Saddi iskandariy" dostonidagi "Haroson" so'zi va uning morfologik belgilari xususida.....	483
F.X.Qosimova	
O'zbek tilshunosligida tibbiy terminologiya bo'yicha tadqiqotlar: sifat va miqdor tahlili.....	488
A.A.Ergashev	
Etnotoponimlar tadqiqi.....	496
H.Sh.Radjabova	
Terminologik lug'atlar tadqiqiga doir.....	502
S.A.Jabborova	
Morphological and syntactic analysis of the structure of medical terminology in the English and Uzbek languages.....	507
Sh.R.Amonturdiyeva	
Diniy uslub shakllanishining antropotsentrik va kognitiv asoslari.....	511
D.I.Mirzayeva	
Tillardagi turg'un o'xshatishlarning umumlingvistik statusi.....	517
X.F.Xaydarova	
Taqlid so'zlarning statistik tahlili (O'zbek tilining ikki va besh jildli izohli lug'atlari misolida).....	520
M.A.Hojiyeva	
Filolog mutaxassislarda terminologik kompetentlikni rivojlantirishning ahamiyati.....	524
I.A.Egamberdiyeva	
Metafora - til, madaniyat va ma'naviyat ko'zgusi.....	527
D.I.Mirzayeva, X.R.Mirzayeva	
O'zbek va Ingliz tillaridagi frazeologik birliklarda o'lchov so'zlarning qo'llanilishi.....	531
Z.Sh.Ashurova	
Badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlari va muallif individual uslubi talqini.....	535
I.T.Hojaliyev, G.S.A'zamova	
Adekvatlik va uni ta'minlovchi nolisoniy va lisoniy omillar.....	539
Z.M.Sobirova	
Til va ong munosabati L.S.Vigotskiy psixologik talqinida.....	545
V.A.Vositov	
So'z o'zlashtirish tillararo aloqani yuzaga keltiruvchi sotsiolingvistik omil sifatida.....	550
M.T.Abdupattoyev, X.P.Shodmonov	
Konvergensiya va uning sintaktik-stilistik funksiyasi.....	557
D.I.Khodjaeva	
Lingvodidaktika va metodika terminlari tavsifi, farqli jihatlari.....	562
O.M.Yusupova	
Ingliz va O'zbek maishiy ertaklaridagi asosiy tushunchalarni ifodalovchi leksemalarning semantik tahlili.....	567
M.V.Nasridinov	
"Maqsad" konsepti maydonida yotuvchi ingliz tilidagi morfemalarning qiyosiy tadqiqi.....	572
M.O.Batirkhanova	
Lexicographic analysis of somatisms in different languages.....	577
M.U.Mamadjanova	
Interpretation of epithetic compounds in linguistics.....	582
M.V.Nasridinov	
Ingliz va O'zbek tillarida "Maqsad" konseptining morfologik struktural, semantik tahlili.....	586
M.Y.Madiyeva	



UO'K: 41+406

“MAQSAD” KONSEPTI MAYDONIDA YOTUVCHI INGLIZ TILIDAGI MORFEMALARNING QIYOSIY TADQIQI**A COMPARATIVE STUDY OF THE MORPHEMES OF THE ENGLISH LANGUAGE THAT LIE IN THE FIELD OF THE CONCEPT OF "PURPOSE"****СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ МОРФЕМ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА, ЛЕЖАЩИХ В ПОЛЕ ПОНЯТИЯ "ЦЕЛЬ"**Nasridinov Muxridin Vaslidin o'g'li 

Farg'ona davlat universiteti Ingliz tili kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada qiyosiy tilshunoslikning o'rganish obyekti hisoblangan konsept tushunchasi haqida ma'lumot beriladi va ushbu soha olimlari tadqiqotlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, ingliz tilida "maqsad" konseptini voqelantiruvchi morfologik til birliklari qiyoslanadi va ularning maydon tabiati qiyosiy tadqiq qilinadi. Maqsad konsepti maydonida yotuvchi ingliz tilidagi morfologik til birliklar turli adabiyotlardan tahlilga tortilgan misollar orqali ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, uning til birliklariga munosib o'zbek tilidagi variantlar til sathlarida misollar orqali atroficha tadqiq etiladi va xulosalanadi.

Аннотация

В этой статье дается информация о понятии понятия, которое считается объектом изучения сравнительной лингвистики, и анализируются исследования ученых в этой области. При этом в английском языке сравниваются морфологические единицы языка, реализующие понятие "цель", и сравнительно исследуется их полевой характер. Морфологический язык в английском языке, лежащий в области целевой концепции единицы рассматриваются на примерах, взятых для анализа из различной литературы. При этом варианты узбекского языка, соответствующие его языковым единицам, детально исследуются и обобщаются на примерах на языковых уровнях.

Abstract

This article provides information about the concept of a concept that is considered an object of study in comparative linguistics, and analyzes the research of scientists in this field. At the same time, morphological units of the language that implement the concept of "purpose" are compared in English, and their field character is comparatively investigated. The morphological language in English, which lies in the field of the target concept of the unit, is considered using examples taken for analysis from various literature. At the same time, the variants of the Uzbek language corresponding to its linguistic units are studied in detail and summarized by examples at language levels.

Kalit so'zlar: kognitiv tilshunoslik, konsept, maqsad konsepti, til sathlari, morfema, leksema**Ключевые слова:** когнитивная лингвистика, концепт, целевой концепт, языковые уровни, морфема, лексема**Key words:** cognitive linguistics, concept, target concept, language levels, morpheme, lexeme**KIRISH**

Insoniyat paydo bo'libdiki, uning asosiy aloqa vositasi hisoblangan til to'xtovsiz suratda o'zgaradi va rivoj topadi. Tabiiyki, insoniyat o'z munosabatlari va xarakterlarini til orqali ifoda etadi. Bugungi kun zamonaviy tilshunosligimizda kognitiv tilshunoslik, pragmatic tilshunoslik, lingvokulturologiya, etnotilshunoslik kabi yo'nalishlar olimlar tomonidan rivoj topib, sayqallanib bormoqda. Ushbu yo'nalishlardan biri hisoblangan kognitiv tilshunoslik bugungi zamonaviy lingvistika tilshunosligimizda tobora ravnaq topib, o'zining yangi-yangi hazinalarini kashf etmoqda. Turli xil risolalar, doktorlik hamda magistrlik dissertatsiyalar, bir qancha maqolalar ushbu istiqbolli yo'nalishga oid muammolarga qaratilmoqda shu jumladan, o'zbek tilshunosligining kognitiv yo'nalishida sermahsul ijod qilib, o'zlarining bir qator kognitiv tilshunoslikka oid dolzarb muammolariga qaratilgan kitob va maqolalari bilan ushbu yo'nalishni har jihatdan boyitib va shu yo'nalishga endi kirib kelayotgan hamda izlanayotgan yosh olim va tadqiqotchilarga nodir asarlar hamda eng sara maqolalar ulashayotgan Sh.Safarov ("Kognitiv tilshunoslik", 2006), G'.M. Xoshimov

TILSHUNOSLIK

(К теории концептов и их таксонимики в когнитивной лингвистике. Самарканд, 2010), Mamatov A. (Tilda kognitiv yondashuvning mohiyati nimada?, Andijon, 2012), Yusupov U. (Kognitiv lingvistika haqida. Toshkent, 2007) larning o'zbek tilshunosligida tilshunoslikning yangi va istiqbolli yo'nalishi sifatida rivojlanib kelayotgan kognitiv tilshunoslikning rivojiga qo'shgan xissalari ulkandir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Turli xil risolalar, doktorlik hamda magistrlik dissertatsiyalar, bir qancha maqolalar ushbu istiqbolli yo'nalishga oid muammolarga qaratilmoqda shu jumladan, o'zbek tilshunosligining kognitiv yo'nalishida sermahsul ijod qilib, o'zlarining bir qator kognitiv tilshunoslikka oid dolzarb muammolariga qaratilgan kitob va maqolalari bilan ushbu yo'nalishni har jihatdan boyitib va shu yo'nalishga endi kirib kelayotgan hamda izlanayotgan yosh olim va tadqiqotchilarga nodir asarlar hamda eng sara maqolalar ulashayotgan Sh.Safarov ("Kognitiv tilshunoslik", 2006), G'.M. Hoshimov (К теории концептов и их таксонимики в когнитивной лингвистике. Самарканд, 2010), Mamatov A. (Tilda kognitiv yondashuvning **mohiyati nimada?**, Andijon, 2012), Yusupov U. (Kognitiv lingvistika haqida. Toshkent, 2007) larning o'zbek tilshunosligida tilshunoslikning yangi va istiqbolli yo'nalishi sifatida rivojlanib kelayotgan kognitiv tilshunoslikning rivojiga qo'shgan xissalari ulkandir.

Zamonaviy tilshunoslik fanida mavjud bo'lgan konseptni aniqlash muammosi va uning tarifi bo'yicha turli qarashlar mavjud. Hozirda uning yagona izohi yo'q, ammo tilshunoslikda konsept atamasini aniqlash uchun bir qancha yondashuvlar mavjud: S.Stepanov konseptni shunday ta'riflaydi: «inson ongida madaniyat o'chog'i, bu madaniyat shaklida insonning aqliy olamiga kiradigan narsa». Tilshunos olim G'.M.Hoshimov konseptga quyidagicha o'ziga xos ta'rif beradi: "Konsept – bu, tafakkurda kechuvchi biri-biri bilan chambarchas bog'liq nafaqat ikki muhim jarayon konseptualashtirish (konseptualizatsiya) va kategoriyalashtirish (kategorizatsiya)ning natijasi bo'lib sanaladi, balki unga qo'shimcha yana bir qator muhim (psixologizatsiya, kognitizatsiya, sotsiologizatsiya, (lingvo)semantizatsiya, sotsiolektizatsiya, stilizatsiya (dialektizatsiya, variantizatsiya va idiolektizatsiya kabi) jarayonlarining pirovard natijasidir, u yaxlit konseptual/kognitiv semantika sifatida lingvistik semantikaning kognitiv asosini tashkil etadi hamda til birligida o'zining semantik sig'imi bilan bog'liq holda ma'lum darajada (qisman) aks etadi" [12.44].

NATIJAR VA MUHOKAMA

Ingliz tilida "maqsad" konsepti tahlil etilar ekan, uning semantik maydonini hosil qiluvchi turli xil morfemalar mavjud bo'lib, ularning barchasi o'zining foydalanish qonun-qoidalari, me'yorlari mavjud. "Purpose" so'zi bilan ishlatiladigan bir qator leksemalar mavjud bo'lib ularni quyidagi tahlillar orqali ko'rib chiqamiz:

Aim - the purpose of doing something; what somebody is trying to achieve the aims of the lesson. For example, *She went to London with the aim of finding a job. Our main aim is to increase sales in Europe.* O'zbek tilida, *U Londonga ish topish maqsadida borgan. Bizning asosiy maqsadimiz Evropada savdo hajmini oshirishdir.*

Aimless - having no direction or plan. *My life seemed aimless.* O'zbek tilida, mening hayotim maqsadsiz ko'rindi.

Aimlessly – the adverb of aimless. *He drifted aimlessly from one job to another.* O'zbek tilida, *U maqsadsiz bir ishdan boshqasiga o'tdi.*

Aimlessness – (noun) *He worried about his son's aimlessness and lack of ambition.* O'zbek tilida, *U o'g'lining maqsadsizligi va orzusi yo'qligidan xavotirga tushdi.*

Goal - something that you hope to achieve or the purpose of doing something. For example, *Our ultimate goal must be the preservation of the environment. Their goal was to eradicate malaria.* Ushbu gaplar o'zbek tilida, *Bizning yakuniy maqsadimiz atrof-muhitni saqlash bo'lishi kerak. Ularning maqsadi bezgakni yo'q qilish edi.*

Target - a result that you try to achieve. *The university will reach its target of 5000 students next September. Set yourself targets that you can reasonably hope to achieve.* O'zbek tilida – *Universitet kelgusi sentyabr oyida 5000 talaba maqsadiga erishadi. O'zingizga maqsad qilib qo'yganingizdan so'ng, maqsadga erishish uchun umid qilishingiz mumkin.*

Purposeful –(adjective) having a useful purpose; acting with a clear aim and with determination. Example, *Purposeful work is an important part of the regime for young offenders.* O'zbek tilida, *Maqsadli ish yosh jinoyatchilar uchun rejimning muhim qismidir.*

Purposeless – (adjective) having no meaning, use or clear aim, *He seemed purposeless and indecisive.* O'zbek tilida, *U maqsadsiz va qa'tiyatsiz ko'rinardi.*

Purposely – (adverb) on purpose; deliberately. *He sat down, purposely avoiding her gaze.* O'zbek tilida: *U ataylab uning qarashlaridan qochib o'tir*

Wish - a desire or a feeling that you want to do something or have something. *He had no wish to start a fight.* O'zbek tilida: *Uning janjal boshlash istagi yo'q edi.*

Intent - showing strong interest and attention to do something. *She denies possessing the drug with intent to supply.* O'zbek tilida: *U giyohvand moddalarni etkazib berish niyatida bo'lganligini rad etadi.*

Intently- adverb of intent. *She looked at him intently. I listened intently to what she had to say.*

Dreamer - a person who has ideas or plans that are not practical or realistic. *Dreamers do not always remember their dreams.* O'zbek tilida: *Xayolparastlar har doim o'z orzularini eslay olmaydilar.*

Dreamy – (adjective) (of a person or an idea) having a lot of imagination, but not very realistic. *Paul was dreamy and not very practical.* O'zbek tilida: *Pavlus xayolparast va realist emas.*

Dreamily - .the adverb of dream. *'I have lots of happy memories,' she said dreamily. He gazed dreamily out of the window.* O'zbek tilida: *Menda juda ko'p baxtli xotiralar bor, - dedi u xayol surib. U xayol surib derazadan tashqariga qaradi.*

Dreamland - a pleasant but not very realistic situation that only exists in your mind. *You must be living in dreamland if you think he'll change his mind.* O'zbek tilida: *Agar u fikrini o'zgartiradi deb o'ylasangiz, siz xayoliy olamda yashayapsiz.*

Agar ushbu jarayonda sinonimlarni yonma yon qiyosini ko'rib chiqadigan bo'lsak:

Purpose (maqsad) – so'zi biron narsaga bog'liq holda nimaningdir maqsadi yoki vazifasi haqida gapirilganda foydalaniladi. Erishish kerak bo'lgan narsa.

"What's the purpose?" ("Maqsad nima?")

"To discuss the case." ("Ishni muhokama qilish uchun.")

[John Grisham: "Time to kill"]

Yuqorida berib o'tilgan misolda ham ishxonaga yig'ilishdan maqsad nima ekani savol qilib berilyapti.

Ushbu so'z o'zbek tilidagi "muddao" so'ziga ko'proq sinonim bo'la oladi. Ya'ni biron bir boshlangan harakat natijasi kutilayotgan vaziyatda muddao so'zi bilan murojaat qilinadi.

"Qabrni yelpishdan muddaoying ne? Tushunmay garangman, biror nima de!"

[Mahmudxo'ja Behbudiy. "Oq yelpig'ichli chinni xotun"]

Yuqorida ko'rsatilgan har ikki holatda ham ma'lum bir ish harakat maqsadini bilish doirasida savol bilan murojat etish chog'ida ushbu so'zlardan foydalanilmoqda.

Goal – (Siz erishmoqchi bo'lgan narsangiz).

Goal so'zi ham o'zbek tiliga "maqsad" deya tarjima qilinadi. Ingliz nutqida bu so'zni ko'p hollarda shaxs bilan birga uchramiz. Ya'ni "my goal" (mening maqsadim), "his goal" (uning maqsadi) va boshqalar.

"Her goal was to let the town know that her brand-new client had arrived, had plenty of money, and was backing a dark horse soon to break from the pack."

(Uning maqsadi shaharga yangi mijozni kelganligini, ko'p pul borligini va tezda otdan qutulish uchun qora otini qo'llab-quvvatlashini aytib berish edi.)

O'zbek tilida ushbu so'zga ekvivalent qilib "niyat" so'zini olishimiz mumkin. Ko'plab asarlar, o'zbek xalq maqollari va albatta nutqlarimizda ham "niyat" so'zi keng qo'llaniladi.

Har kimning niyati – o'z yo'ldoshi.

[O'zbek xalq maqollari(Tuzuvchilar: T. mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov, Ma'sul muharir: Sh. Turdimatov. – T: "Sharq", 2016. 368- bet]

"Bir bor ekan, bir yo'q ekan, niyati buzuq, hammani o'zidan bezor qilgan bir o'g'ri bor ekan" [www. Ziyouz.com "Yaxshi niyat yarim davlat"]

Niyat so'zi o'zbek tilshunosligida shaxsga tegishli sifatida qo'llab kelinadi.

Hope – (umid) insonning biron ish harakat yoki holat sodir bo'lishiga xohish va bo'lishi mumkin deb o'ylash.

“What?” said Birkin, rather surprised. “- Nima? - dedi Birkin ajablanib.

“That’s what I hoped you could tell me,” said Gerald.”

- Menga aytishingizga umid qilganim shu edi, - dedi Gerald.

“There was a silence for some time.”

-Biroz sukut saqlandi.

Umid soʻzini quyidagi misol bilan tahlil qilishimiz mumkin.

Fales:

- *Donolarning donosi nima?*

- *Vaqt, chunki u hamma narsani kashf qiladi.*

- *Hamma uchun xos boʻlgan umimiylik nima?*

- *Umidvorlik, chunki odamlarda hech narsa boʻlmaganda ham, u albatta boʻladi.*

[*“Gʻarb Falsafasi” Oʻzbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati nashriyoti “SHARQ” T; 2004.]*

Umidvorlik, chunki odamlarda hech narsa boʻlmaganda ham, u mavjud boʻladi. Ha, umid inson ongida namoyon boʻluvchi noobyektiv tuygʻu bolib, eng qiyin vaziyatlarda yoʻlchi yulduz vazifasini bajaruvchi maʼnosini ham anglatadi.

Plan – (reja) siz qilmoqchi boʻlgan, erishmoqchi boʻgan narsa. Reja albatta kelajak uchun moʻljallangan va turli xil bosqichlardan tashkil topgan koʻrinishda namoyon boʻladi. Misol uchun maqsad, niyat yoki orzuni olaylik. Ularning har uchchalasi ham reja kabi kelajak uchun moʻljallangan, inson xohish istagi orqali kelib chiqqan noobyektiv hodisa deb ayta olamiz. Ammo ularda reja kabi turli xil bosqichlarni koʻrmaymiz.

“Father is spiteful and angry, he’s made some plan and will stick to them.”

(*Ota gʻazabli va gʻazablangan, U biron bir reja tuzgan va ularga sodiq qoladi.*)

[*“The Brothers Karamazov” Fyodor Dostoevsky]*

Ingliz tilidagi “plan” soʻzi oʻzbek tilidagi reja soʻzi ishlatilishi bilan deyarli farq qilmaydi. Bu soʻz koʻp holatlarda biron ish oldidan tuzilgan turli bosqichlarga ega boʻlgan tizimli holatlar uchun ishlatiladi.

Yettinchidan, xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik aloqalarimiz sezilarli darajada faollashdi. Chet ellik sheriklarimiz bilan harbiy va harbiy-texnik hamkorlikni mustahkamlash boʻyicha 13 ta amaliy harakatlar rejasi yoki “yoʻl xaritasi” amalga oshirilmoqda.

[*Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqi Yanvar 11, 2018]*

Dream – (orzu) ingliz tilida ushbu soʻzning “tush” degan maʼnosi ham mavjud. Orzu maʼnosida esa biron bir insonning kelgusida amalga oshishini intiqlik bilan istash tushuniladi. Koʻp holatlarda “dream” soʻzi amalga oshishi juda qiyin yoki umiman amalga oshmaydigan holatlar uchun qoʻllaniladi. Shuning uchun ham bu soʻz “tush” soʻzi bilan sinonim boʻla oladi.

“The dream must be borne with, and Mr. Knightley must take his seat with the rest round the large modern circular table.”

(*Orzuni amalga oshirish kerak va Janob Naytli zamonaviy dumaloq katta stol atrofida dam olish uchun oʻz joyiga oʻtirishi kerak.*)

[*“Pride and prejudice” Jane eyre]*

Orzu soʻzi oʻzbek tilidagi tilak soʻzining kuchli shakli ham deyish mumkin. Baʼzan majoziy maʼnoda boʻrttirib ham aytiladi. Misol uchun xalqimizda qiz bolalarga nisbatan, u orzucidagi oq ot mingan shahzodasini kutyapti degan soʻzlarni eshitamiz. Aslini olganda qadimgi tarixda bunday baxt butun mamlakatdan faqat birgina qizga nasib etgan. Va bu boʻrttirish maʼnosida hozirgi kunda ham saqlanib qolgan.

“Oʻylaymanki, bunday xulosani insoniyat oʻz ongli hayoti davomida doimo orzu qilib, intilib kelgan yuksak maʼnaviy idealning falsafiy ifodasi, mantiqiy natijasi sifatida qabul qilish oʻrinlidir.”

[*“Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch” Oʻz.Res. 1-prezidenti Islom Karimov]*

Aspiration – bajarishishga va amalga oshishga boʻlgan kuchli istak.

Ushbu soʻz biron kelajakka moʻljallangan xohish istak kabi masalalar haqida aytilganda va ularga boʻlgan talab kuchli boʻlganda foydalaniadi. Koʻp hollarda rasmiy uslubda ham duch kelishimiz mumkin.

“She talked about her hopes and aspirations.”

(U o‘zining umidlari va intilishlari haqida gapirdi.)

“A political party that fulfils the aspirations of the British people.”

(Britaniya xalqining intilishlarini amalga oshiradigan siyosiy partiya.)

[Oxford. Advanced learners' dictationary]

O‘zbek tilida maqsad so‘zi bilan yonma yon ishlatiladigan “vazifa” so‘zi ham mavjud bo‘lib, u ko‘p hollarda rasmiy uslubdagi nutqlarda uchraydi.

“Ayni paytda istiqlol yillarida yurtimizda milliy ma’naviyatimizni tiklash, uni zamon talablari asosida rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ulkan ishlar, bu borada oldimizda turgan **maqsad va vazifalar** haqida atroflicha fikr yuritildi.

XULOSA

Maqsad kategoriyasi va uni voqealanishi til qurilishining deyarli barcha sathlarida uchraydi va ularning morfologik tahlilini va leksik birliklarini yuqoridagi turli xil misollar orqali ko‘rib chiqishimiz mumkin. Ushbu misollar bizga shuni ko‘rsatadiki, ularning majmuasi tillarda maqsad konseptni voqelantiruvchi maxsus verbal vositalar tizimini tashkil etadi. Bu tizim, tillarda “maqsad” konsepti verbalizatorlarining lingvokognitiv maydonini bizga yoritib beradi.

Qiyoslanayotgan “maqsad” konseptining ingliz tilida ifodalovchi til vositalari shuni ko‘rsatadiki, ular semantikasiga ko‘ra, o‘xshash bo‘lsalar ham, strukturasi ko‘ra butunlay farqlanadilar, chunki, har bir til o‘ziga xos struktural jihatlarga ega. Shu bois, qaysi tilda maqsad konseptini ifodalovchi verbal vositalar ko‘p bo‘lsa, o‘sha tilda mazkur kichik tizim rivojlangan sanaladi. Demak, u tilda sinonim vositalar ham ko‘p bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Safarov. Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax, 2006
2. Hoshimov G'. К теории концептов и их таксономики в когнитивной лингвистике // Систем-структур. Tilshunoslik muammolari. Filologiya fanlari doktori, professor N.K. Turniyozov tavalludining 70 yilligiga bag‘ishlangan Respublika ilmiy- nazariy konferensiyasi materiallari. Samarqand 2010
3. Hoshimov G'.M. Ziyayev. A. “Интенсификация-деинтификация” konseptual semantikasi verbalizatorlarining kognitiv tipologiyasi. Far.Du. Ilmiy xabarlar. 4- 2017.
4. “Proverb” M. Karamatova. Tashkent Mehnat. 2000.
5. O‘zbek xalq maqollari (Tuzuvchilar: T. mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov, Ma’sul muharir: Sh. Turdimatov. – T: “Sharq”,
6. [www. xalq so‘zi.com](http://www.xalq-so‘zi.com)